



XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 27-fevral

VII-8-32-4-65-K/25

Nishon tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida

Nishon tumani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, yuqori va barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, aholi yashashi va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, yashil tamoyil va yondashuvlarni keng joriy etish, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi drayver loyihalarni amalga oshirish orqali aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoniga hamda xalq deputatlari Nishon tumani Kengashining 2025-yil 31-yanvarda “2025-yilda Nishon tumani kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi VII-7-12-4-65-K/25-son qaroriga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi bandligini ta‘minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, Nishon tumanida “Zarbdor” tajribasi asosida shakllantirilgan “drayver” loyihalarni amalga oshirish uchun dastlabki manzilli ro‘yxatga asosan respublika budjetidan 7,540 mlrd so‘m mablag‘ ajratilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining xalq deputatlari Nishon tuman Kengashiga taqdim etgan taklifiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil 20-dekabrda 223-son farmonida ko‘rsatilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida hududlarda ishlab chiqilgan drayver loyihalarni moliyalashtirish uchun respublika budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan ilovaga muvofiq 7,540 (yetti milliard besh yuz qirq million) mlrd so‘m mablag‘lar yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas‘ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha belgilangan tartibda tegishli shartnomalar tuzish hamda belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash; moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limiga taqdim etish yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari Z.Aramov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (D.Xalilov) bilan birgalikda ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni loyiha-smeta hujjatlarini eng maqbul shartlarda ishlab chiqish, ishlarni sifatli, belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta‘minlash, nazoratga olish hamda bajarilgan ishlar yakuni bilan tegishli o‘lchov tekshirish va nazorat tadbirlarini amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Raxmonov, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari T.Raximov hamda tuman hokimining o‘rinbosari Z.Aramov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



TOG‘AYEV BOTIR
NORMAHMADOVICH

Xalq deputatlari Nishon tumani Kengashining
2025-yil 27-fevraldagi
VII-8-32-4-65-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Nishon tumanida “Zarbdor” tajribasi asosida shakllantirilgan “drayver” loyihalarni amalga oshirish uchun
DASTLABKI MANZILLI RO‘YXATI**

| T/r | “Drayver” loyihalar nomi va manzili | MFY nomi | Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha nomi | Ish turi | Amalga oshiriladigan infratuzilma loyiha soni | Loyiha quvvati jami | | shu jumladan | | Loyiha (obyekt)ning dastlabki qiymati (mln so‘m) | shundan | |
|------------------------------------|--|-------------|---|-------------------------------|---|---------------------|---------|----------------|----------------|--|--------------------|-----------------|
| | | | | | | o‘lchov birligi | miqdori | yangi qurilish | rekonstruksiya | | Respublika budjeti | Mahalliy budjet |
| Nishon tumani | | | | | 7 | | | | | 7 540 | 7 540 | |
| 1. | “Baynalminal” MFY hududidan o‘tgan “Qarshi-Tallimaron” yo‘lining 3 km qismini 24/7 rejimida ishlaydigan ko‘chaga aylantirish | Baynalminal | Elektr tarmoqlari tortish | Transformator o‘rnatish | 1 | dona | 2 | 2 | | 300 | 300 | |
| | | | | Sip kabel tortish (yangilash) | | km | 5,0 | | 5,0 | 550 | 550 | |
| | | | Ichimlik suvi bilan ta‘minlash | Quvur | 1 | km | 2,1 | | 2,1 | 1 100 | 1 100 | |
| | | | Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash | Asfaltlash | 1 | km | 1,0 | 1,0 | | 1 750 | 1 750 | |
| | | | Obodonlashtirish va ko‘kaalmzorlashtirish | ko‘cha chiroqlari o‘rnatish | 1 | dona | 150 | 150 | | 600 | 600 | |
| Chiqindi qutisi | dona | 40 | | | | 40 | | 40 | 40 | | | |
| 2. | Talimarjon IESning teplotrassasini ko‘chirish orqali undan bo‘shagan yer maydonda Nuriston bozorining filialin tashkil etish | Nurchi | Ichimlik suvi bilan ta‘minlash | Quvur | 1 | km | 0,3 | | 0,3 | 1 000 | 1 000 | |
| | | | Yo‘l infratuzilmasini yaxshilash | Asfaltlash | 1 | km | 0,3 | | 0,3 | 600 | 600 | |
| | | | Obodonlashtirish va ko‘kaalmzorlashtirish | piyodalar yo‘lagi qurish | 1 | km | 0,5 | 0,5 | | 600 | 600 | |
| Savdo rastalari pavilyonini qurish | m2 | 1 400 | | 1 400 | | | 1 000 | 1 000 | | | | |